

Gulnora N. XUDAYBERGANNOVA,

Senior Lecturer of the UNESCO

Department for Religious Studies and

Comparative Study of World Religions,

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD.

A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail:gulnora2801@mail.ru

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023-3/5

XRISTIANLIK VA ISLOM MANBALARIDA ASKETIZMGA OID KO'RSATMALAR TAHLILI

ANALYSIS OF INSTRUCTIONS ON ASCETICISM IN CHRISTIANITY AND ISLAMIC SOURCES

АНАЛИЗ НАСТАВЛЕНИЙ ОБ АСКЕТИЗМЕ В ХРИСТИАНСКИХ И ИСЛАМСКИХ ИСТОЧНИКАХ

KIRISH

Xristianlik asketizmining ilk asoslari “Bibliya”ning matnlari hamda havoriyilar, xususan, Pavel, Petr va Iakov xabarlarida uchraydi.

“Bibliya”da asketizm ma’nosini ifodalovchi oskain (yun. ἀσκέιν – tirishmoq, harakat qilmoq) so‘zi fe’l sifatida (“Ayni shu sababdan Xudo va xalq oldida men doim vijdonimni sof saqlashga tirishaman” Hav. 24:16) faqatgina bir marta, matnlarda esa uning sinonimlari: mashq qilmoq (γυμνάζειν), kurashmoq (ἀγωνίζεσθαι), kurashga qayta kirish (ἐπαγωνίζεσθαι), raqobatlashmoq (ἀθλεῖν) sifatida tez-tez uchraydi.

Islomda asketik ko‘rsatmalar (zuhdga oid) bir qator manbaviy asoslarga ega. Qur’oni karimning “Yusuf” surasi 20-oyatida Yusuf a.s.ni quduqdan olib chiqqanlar uni qadrlamaganliklari uchun ular haqida “zuhd” so‘zi o‘zagidan zohid so‘zining ko‘pligi “zohidin” ishlataligan. Garchi Qur’oni karimda zuhd so‘zi bir marta kelgan bo‘lsa-da, zuhdning mazmuni ko‘plab oyatlarga singdirilgan.

ASOSIY QISM

“Bibliya” tarkibidagi Injil matnlarida bizgacha yetib kelgan xabarlariga tayangan holda va Iso Masihning so‘zlarini yetkazgan havoriy Pavelga ko‘ra, havoriyilar asrida asketizmda Iso Masihga

taqlid qilish va ergashish, ya’ni uning taqdirini va azoblarini baham ko‘rishga tayyorlikni anglatuvchi kayfiyat ustunlik qilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, “kimda-kim Menga ergashishni istasa, o‘zidan kechsin” (Mark. 8:34), “kim Men va Injil uchun jonini bersa, jonini qutqaradi” (Mark. 8:35).

Aynan shunday chaqiriq Luqo Injilida ham keltiriladi: “Agar kim Menga ergashishni istasa, o‘zidan kechsin” (Luqo. 9:23-24).

Havoriy Pavlusning Efesliklarga maktubida ta’limotning asosiy maqsadi nafaqat najotkorga ergashish, balki, birinchi navbatda, insonning “eski o‘zligini bir chetga olib qo‘yish; ya’ni ilgarigi turmushiga oid, aldovchi ehtiroslar bilan buzilib borayotgan eski, yomon tabiatini soqit qilish” (Ef. 4:22), deb izohlanadi. Shuningdek, rimliklarga yo‘llangan maktubda quyidagi chaqirqlarni uchratish mumkin: “...tabiatimiz amri bilan yashash uchun biz bu tabiat talablari oldidida majbur emasmiz. Agar o‘z tabiatingizga mahliyo bo‘lib yashasangiz, ruhan o‘lishingiz muqarrar. Lekin agar bashariy tabiatning qilmishlarini ruh kuchi bilan o‘ldirsangiz, ruhan yashaysizlar” (Rim. 8: 12–13). Bunday hayot tarzining asosiy xususiyati “yaxshi ishda doimiylik” (Rim. 2:7–8), “tanadagi sezgilarni ruh bilan o‘ldirish” (Rim. 8:13) va “gunoh uchun o‘lim” (Gal. 2:19–20) – avvalgi hayot tarzidan qayta tirilgan, gunohkor istaklardan poklangan, “endi men yashamayman, lekin menda Masih yashaydi” (Gal. 2:20) tushunchasini qabul qilgan insonning holatidir.

Ilk xristianlikda insonning gunohkorligi va gunoh uchun o‘lish kerakligi haqidagi maktublar matnida topilgan keskin hukmlarga qaramasdan, havoriy Pavel ba’zan hatto asketizm uchun ortiqcha g‘ayrat qilishga qarshi ogohlantirgan: yosh bevalarni turmush qurish va farzand ko‘rishi maslahat bergen (Tim. 5:14), o‘zining shogirdi Timofeyni qashshoqlarcha taomlanishini tark etishga (Tim. 5:23) va boshpanasiz holda yuravermasdan, balki Efesda qolishga chaqirgan (Tim. 1:3).

Asketizmdan maqsad xristianlarning umumiylajotidir (Kor. 10:33), har bir harakat qiluvchi unga nisbatan a’zo hisoblangan jamoatning umumiyl tanasidir (Col. 1:24). Havoriyalar uchun Isoga ergashish – ustoz harakatiga taqlid qilishni, shuningdek, birinchi navbatda taqdirning mashaqqatlarini taqsimlashga tayyorlikni anglatgan.

Xristianlik asketizmiga oid manbalarning dastlabki namunalari milodiy III–IV asrlarga taalluqli bo‘lib, asosan, Sharqiy Rim xristianligidagi (pravoslavlik) asketik amaliyotlarga tegishlidir.

Аннотация. Maqolada xristian asketizmi asosi “Injil”, “Havoriyalar maktublari” hamda havoriylar faoliyatiga tayangani aniqlangan. Pavel, Pyotr kabi havoriylarning hayot yo’llari va tur mush tarzları xristian acketizmining rivojiga namuna o’lar oq ta’sir ko’rsatgani yoritilgan. Xristianlik asketizmiga oid manbalar IV-V asrdan boshlab shakllanishi kuzatilgan. Bu davrdagi manbalar din yetakchilari tomonidan yozila boshlagan, keyingi davrlarga tegishli manbalarda asketizm va asketik amaliyotlar yuzasidan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Xristianlik asketizmi bo’yicha o’rta asrlarda ko’proq saylasuflar shug’ullangan, zamonaviy tadqiqotlarda esa, bu mavzuda dinshunos, ilohiyotshunos teologlar bilan bir qatorda sosiolog mutaxassislar ham qiziqqanlar.

Islomdagi asketik qarash va amaliyotlar asosi islomning asosiy manbaları Qur’oni karim va Sunnatga tayangani oyat va hadislar misolida ko’rib chiqilgan. Islomdagi zuhd mavzusiga taalluqli manbalar hijriy I va II asrlarda shakllana boshlangan. Bu davrda zuhdga oid qarashlar tizimlashuvi kuzatilgan hamda mazkur mavzuda maxsus adabiyotlar yaratilgan. Shuningdek, maqolada islom ulamolari tomonidan tuzilgan “Kitob az-zuhd” turkumidagi asarlar ham islom zohidligining nazariy va amaliy asoslari bo’lib xizmat qilgani, klassik davr adabiyotlarining deyarli barchasida zuhdga tegishli fasl (boblar) kiritilgani, xususan, Kalaboziy, Qushayriy, Abu Tolib Makkiy, Imam G’azzoliy kabi olimlarning tasavvufga doir asarlarida bu mavzu alohida yoritilgani tahlil qilingan. Islomning ilk davrlarida zuhd mavzusiga oid hadislarni alohida jamlash urf bo’lgan hamda zuhd amaliyotiga doir mustaqil yo’rignomalar, zuhd tafsifiga oid kitoblar ham ta’lif etilgan.

Калит сўзлар: asketizm, xristianlik, Bibliya, Injil, havoriy, islom, zuhd, Qur’oni karim, nafs, tasavvuf.

Abstract. In the article, the basis of Christian asceticism was found to be based on the “Bible”, “Letters of the Apostles” and the activities of the apostles. It is highlighted that the ways of life and lifestyles of apostles such as Paul and Peter influenced the development of Christian asceticism as an example. Sources of Christian asceticism have been observed since the IV-V centuries. Sources of this period began to be written by religious leaders. Theoretical and practical studies were conducted on asceticism and ascetic practices in the sources of later periods. In the Middle Ages, more philosophers were engaged in Christian asceticism, and in modern studies, along with theologians and theologians, sociologists are also interested in this topic.

The basis of ascetic views and practices in Islam is considered on the example of verses and hadiths based on the main sources of Islam, the Holy Qur'an and the Sunnah. Sources related to the topic of asceticism in Islam began to form in the 1st and 2nd centuries of Hijri. During this period, systematization of views on asceticism was observed and special literature was created on this topic. The article also analyzes the following: the works of the “Kitab az-Zuhd” series compiled by Islamic scholars also served as the theoretical and practical foundations of Islamic asceticism, almost all the literature of the classical period included a chapter (chapters) related to asceticism, in particular, this topic is covered in the works of Sufism written by Kalabazi, Qushayri, Abu Talib Makki, Imam Ghazali, etc. In the early days of Islam, it was customary to collect hadiths on the topic of asceticism separately, and independent instructions on the practice of asceticism, as well as books on the description of asceticism, were published.

Keywords: asceticism, Christianity, Bible, apostle, Islam, zuhd, Holy Qur'an, nafs, Sufism.

Аннотация. В статье установлено, что в основе христианского подвижничества лежат Библия, послания и деяния апостолов. Подчеркивается, что на развитие христианского аскетизма повлиял образ жизни и жизненный путь таких апостолов, как Павел и Петр. Истоки христианского подвижничества наблюдаются с IV-V вв. Источники этого периода стали писать религиозные деятели, а в источниках более поздних периодов велись теоретические и практические исследования аскезы и аскетических практик. В Средние века христианским подвижничеством занимались большие философы, а в современных исследованиях, наряду с теологами и богословами, этой темой интересуются и социологи.

Основа аскетических взглядов и практик в исламе рассматривается на примере аятов и хадисов, основанных на основных источниках ислама, Священном Коране и Сунне. Источники, связанные с темой аскетизма в исламе, начали формироваться в I-II веках хиджры. В этот период наблюдается систематизация взглядов на аскетизм и создается специальная литература по этой теме. Также в статье теоретическими и практическими основами исламского аскетизма послужили труды серии “Китаб аз-зухд”, составленные исламскими учеными; практически вся литература классического периода включала главы (главы), связанные с аскетизмом, в частности, Карабади, Кушайри, Абу Талиб Макки, Имам Анализируется, что эта тема освещается отдельно в трудах суфистов таких ученых, как Газали. В эпоху раннего ислама было принято собирать хадисы на тему аскезы отдельно, а также издавались самостоятельные наставления по практике аскезы и книги с описанием аскезы.

Ключевые слова: аскетизм, христианство, Библия, Евангелия, апостол, ислам, зухд, Священный Коран, нафс, суфизм.

Bular sirasiga: Antoniy Velikiy, Varsonufiy va Ioann, Makariy Velikiy, Yefrem Sirin, Maksim Ispovednik, Ioann Lestvichnik, Isaak va Grigoriy Palama kabi mashhur asketlarning asketik amaliyotini tasvirlaydigan besh jildlik “Filokaliya (yun. Φιλοκαλία. Υαχσηλικσεβαρλικ)” fundamental asarini ko‘rsatish mumkin. Bu to‘plam Korinf metropoliteni Avliyo Makarius tomonidan tuzilgan (1731–1805) va Avliyo Nikodim Svyatogores (1749–1809) tomonidan tahrirlangan. To‘plamning to‘liq nomi “Hushyor, dono, xudojo‘y avliyo otalarimizdan faol va tafakkurli axloqiy falsafa orqali ongi poklovchi to‘plam” deb nomlanadi. Yunon tilidagi “Filokaliya” rohib Paisiy Velichkovskiy tomonidan slavyan tiliga tarjima qilingan va keyinchalik Avliyo Teofan tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. To‘plam XIX asr oxirida qayta nashr etilgan (1-jild-1877, 2-jild-1884, 3-jild-1888, 4-5-1889-jildlar).

To‘plam tarkibi quyidagi avliyo va ruhoniylarning tajribalari asosida yozilgan asarlarni tashkil etadi: I jild - Antoniy Velikiy, Makariy Velikiy, Isaiya Otshelnik, Mark Podvijnik, Avva Yevagriy; II jild - Ioann Kassian, Quddus presviteri Isixiy, Nil Sinayskiy, Yefrem Sirianin, Ioann Lestvichnik, Varsanufiy va Ioann, Avva Dorofey, Isaak Sirianin; III jild - Diadox Fotikiyskiy, Ioann Karpafskiy, Avva Zosima (Falastinlik), Maksim Ispovednik, Avva Falassiy, Edessa yepiskopi Feodor, Feognost Filofey Sinayskiy, Avva Filimon, Iliya Presviter; IV jild - Feodor Studit; V jild - Simeon Noviy Bogoslov, Nikita Stifat, Filadelfiya mitropoliti Feolipt, Grigoriy Sinait, Nikifor Uyedinennik, Grigoriy Palama, Simeon, Petr Damaskin, Kallist Katafigot.

“Filokaliya” mualliflarining asosi g‘oyasi - tarkidunyochilik, iroda kuchi bilan najotga erishish uchun ehtiroslar bilan kurashish bo‘lgan.

To‘plamning besh jildi pravoslav asketizmining oltin fondini tashkil etadi. Asrlar davomida pravoslavlilik rohiblari va e’tiqod vakillari uchun ushbu kitob asketizmning ma’naviy va amaliy tajribalari asosini jamlagan manba hisoblanadi.

G‘arbiy Rim xristianligining (katolik) asketizmga oid tadqiqotlarida Amvrosiy Mediolanskiy (IV asr), Nolan yepiskopi Pavlin (IV asr), Iyeronim Stridonskiy (IV asr), Benedikt Nurskiy (V-VI asrlar), Avliyo Grigoriy Velikiy (VI asr) kabi shaxslarning maktublari keyingi davr tadqiqotchilar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Iyeronim Stridonskiy tomonidan bitilgan 120 ta maktub asketik amaliyotlar mohiyatini yetkazishga qaratilgan manba hisoblanadi.

O‘rtasrlarga taalluqli tadqiqotlardan Bernard Klervoskiy (XII asr)ning “Xudoga muhabbat haqida(Sur l’amour de Dieu)”, “Kamtarlik va mag‘rurlik darajalari haqida (A propos des degrés d’humilité et de fierté)” kabi asarları, bir qator to‘plam va madhiyalari, shuningdek, 490 ta maktubi katolik yo‘nalishida asketik amaliyotlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu davrga tegishli katolik yo‘nalishi manbalardan yana biri – italyan faylasufi, ilohiyotshunos va ruhoniy Foma Akvinskiyning (XIII asr) “Ilohiyot yig‘indisi (Summa theologiae)” risolasi. Mazkur risola uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda – Xudo va uning sifatlarini tanish, ikkinchi qismda inson, uning axloqiy sifatlari, uchunchi qismda esa, Najotkor va najot yo‘llari haqida mulohazalar keltiriladi. Mazkur risola savol-javob tarzida bo‘lib, jami 512 ta savolga javob berilgan.

Katolik yo‘nalishidagi fransisk ordeni asoschisi, ruhoniy Fransisk Assizskiy (XIII asr)ning saqlanib qolgan matnlari orasida ibodatlar, qonunlar, nasihatlar mayjud. Uning “Quyosh qo‘shig‘i” risolasi G‘arb xristianligida muhim manbalardan hisoblanadi. Mazkur risolada Yaratuvchi va yaratilganlarning mohiyati tahlil qilinadi. Fransiskning “Quyosh qo‘shig‘i” asari hozirda italyan abadiyotining nodir yodgorligi hisoblanadi.

O‘rtasrlar katolik asketizmiga tegishli manbalar orasida italyan diniy arbobi, Dominikan ordeni rohibasi Yekaterina Siyenskaya (XIV asr)ning maktublari alohida o‘rin tutadi. Yekaterina qat’iy asketik hayot tarziga amal qilgan.

Katolik ruhoniysi, iyezuit ordeni asoschisi Ignatiy Loyola (XVI asr)ning 1547-yilda Papa Pavel III tomonidan tasdiqlangan “Ma’naviy mashqlar” (“Exercitia Spiritualia”) risolasi inson irodasi, iyomon sinovi, tafakkur, kamolot, amaliy va fikriy ibodat usullariga bag‘ishlangan. Loyola ma’naviy mashqlarni to‘rt bosqichga bo‘lgan (bosqichlar, shartli ravishda, haftalik o‘lchov asosida taqsimlangan, bunda mashq qiluvchining natijalariga ko‘ra, haftalar muddati qisqa yoki uzunroq bo‘lishi mumkin): birinchi hafta - poklanish (vita purgativa). Bu davrda inson qilgan barcha gunohlarini eslab, ularidan xalos bo‘lish uchun gunohkorlik holatidan chiqishi va inoyatga erishishi lozim. Ikkinchi hafta – ma’rifatga erishish (vita illuminativa), bu davr Iso Masihning yerdagi hayoti haqida ibodat orqali fikr yuritishga bag‘ishlanadi. Ikkinchi hafta Isoga ergashish uchun qaror qabul qilish haftasi

hisoblanadi. Uchinchi hafta – mashq qiluvchi Iso Masih bilan xochda birlashadi, u bilan qayta tirilish uchun o‘limni his qiladi. To‘rtinchi hafta – qayta tirilish va ko‘tarilish (me’roj), barcha haftalarning natijasi Xudodagi hamma narsani va hamma narsada Xudoni sevishga (contemplatio ad amorem) imkon beruvchi muhabbatga erishishdir.

O‘z vaqtida, Ispaniyaning norasmiy homiysi hisoblangan, bugungi kunda ham alohida ehtirom qilinadigan, katolik rohibasi Avilalik Tereza (XVI asr)ning “Ichki qal’a (El Castillo Interior, 1577)” kitobi Xudo shohligiga kirish yo‘llarini tavsiflashga bag‘ishlangan. Tereza Xudo shohligini allegorik tarzda qal’a shaklida tasvirlaydi, “yo‘l” ruh o‘zining birinchi to‘siqlarini yengib, qal’aning ichki devorlariga panjara chizig‘idan oshib ketgan paytdan boshlanadi va har bir yangi bosqichda ichki qismga ko‘proq kirib boradi. Amalda kitob katolik meditatsiyalari, ibodatlari va boshqa amaliyotlar tizimiga o‘xshaydi, bu o‘quvchiga ruhiy zinapoyadan ko‘tarilishga imkon beradi. Shuningdek, faylasuf, yozuvchi, katolikning teatin ordeni vakili Lorenso Skupoli (XVI asr)ning 1589 – yilda Venetsiyada nashr etilgan eng mashhur “Ma’naviy kurash (Il combattimento spirituale)” asari ham asketik amaliyotlarga bag‘ishlangan. Bu asar 66 bobdan iborat bo‘lib, kitob cho‘ponning o‘z qiziga quyidagi murojaati bilan boshlanadi: “Masihdagi suyukli qizim, senga kamolot cho‘qqisiga yetishingni va Xudoga yaqinlashib, U bilan bir ruh bo‘lishingni tilayman”. Kitobda ruhiy hayotni mukammallashtirish uchun ko‘rsatmalar hamda insonlarga yetishi mumkin yovuzliklar (jinlar ta’siri) dan saqlanish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Islomdagi zohidlikka kelsak, tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, Qur’oni karimning quyidagi oyatlari zohidlarda zohidona kayfiyatlarni uyg‘otgan: “Bas, hargiz sizlarni hayoti dunyo (o‘zining o‘tkinchi ne’matlari bilan) aldab qo‘ymasin”¹, “Bu hayoti dunyo faqat (bir nafaslik) o‘yin-kulgidir. Agar ular bilsalar, oxirat diyorigina (mangu) hayot (diyordir)”² (), “Mol-mulk, bola-chaqa, shu hayoti dunyo ziynatidir”³, “Rabbingizning nomini doim zikr qiling va qalbingizni hamma narsadan xoli qilib, chin ixlos birla unga yo‘naling!”⁴, “Odamlarga ayollar, bolalar, tunganmas oltin, kumush, boyliklar, (qimmat) baholi otlar, chorva va ekin-tekinlar kabi istak-xohishlariga

¹ Luqmon surasi, 31-oyat.

² Ankabut surasi, 29-oyat.

³ Kahf, 18-oyat.

⁴ Muzammil surasi, 73-oyat.

ko‘ngil qo‘yish chiroyli qilindi. Holbuki, bu narsalar hayoti dunyoning (o‘tkinchi) narsalaridir. Allohning huzurida esa, eng go‘zal qaytadigan joy jannat bordir”⁵, “Toki sizlar qo‘llaringizdan ketgan narsaga qayg‘urmagaysizlar va (Alloh) ato etgan narsa bilan shodlanib (havolanib) ketmagaysizlar”⁶, “Alloh bandalariga Latifdir. U O‘zi xohlagan kishiga rizq berur. U o‘ta quvvatlidir, o‘ta izzatlidir. Kim oxirat hosilini istasa, unga hosilini ziyoda qilib berurmiz. Kim dunyo hosilini istasa, unga o‘shandan berurmiz va unga oxiratda biron nasiba bo‘lmas”⁷ va boshqa oyati karimalar dunyoga haddan ziyod berilmaslikni, asl g‘oya – oxirat hayotini qo‘lga kiritish ekanligiga ishora qiladi. Shuningdek, Muhammad a.s.ning quyidagi hadislardan zuhd va zohidlikning mazmun-mohiyatini tushunish mumkin: “Dunyoda zohid bo‘lginki, Alloh seni sevsin. Insonlarning qo‘lidagi narsalarga ham zohidlarcha qaraginki, ular ham seni sevsinlar”, “Alloh nazdida dunyo pashsha qanotichalik qadrli bo‘lganida edi, Alloh biron kofirga bir yutum suv ham bermagan bo‘lardi”, “Oxiratga qaraganda dunyoning qadri, biringizning barmog‘ini dengizga solib qo‘yishga o‘xshaydi. Barmog‘i bilan dengizdan suv olib, ko‘z o‘ngiga keltirsin”, “Har ummat uchun bir fitna sababi bor, ummatimning fitnasi mol-u dunyo sevgisidir”, “Ogoh bo‘linglar! Albatta, jasadda bir parcha go‘sht bordir. Qachon u solih bo‘lsa, jasadning hammasi solih bo‘lur. Qachon u buzuq bo‘lsa, jasadning hammasi buzuq bo‘lur. Ogoh bo‘linglar! O‘sha narsa qalbdir”, “Albatta, Alloh suratlaringizga va mol-u dunyolariningizga nazar qilmaydi. Lekin qalblaringiz va amallaringizga nazar qiladi”, “Dunyodagi zohidlik halolni harom qilish bilan ham, molni zoye qilish bilan ham emasdir. Lekin dunyodagi zohidlik ikki qo‘lingdag‘i narsani Allohning qo‘lidagi narsadan ko‘ra ishончлироq deb bilmasligingdir, o‘zingga yetgan musibatning savobiga yetishni uning senga yetmay qolishidan ko‘ra ko‘proq istashingdir”, “Men sizlarni qabrlarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Endi ularni ziyorat qilaveringlar. Chunki ularning ziyorati dunyodan zuhd qildiradi va oxiratni eslatadi”.

Islomda zuhdning mohiyatini ochib beradigan oyat va hadislardan tashqari sahobiylar hayotlari ham namuna hisoblanadi. Har jihatdan payg‘ambar a.s.ni o‘rnak deb bilgan sahobiylar ham zuhd-u taqvo yo‘lini tanlaganlar. Ulardan ba’zilari zuhd-u taqvoda ilg‘orlaganlar. Qur’oni karimning quyidagi

⁵ Oli Imron surasi 3-oyat.

⁶ Hadid surasi, 57-oyat.

⁷ Sho‘ro surasi, 19-oyat.

oyatlari aynan shu sahobiylar haqidadir: “Ularning yonboshlari o‘rin-joylaridan yiroq bo‘lur (ya’ni tunlarini ibodat bilan o‘tkazishib, oz uxlaydilar). Ular Parvardigorlariga qo‘rquv va umidvorlik bilan duo-iltijo qilurlar va Biz ularga rizq qilib bergan narsalardan infoq-ehson qilurlar”, “Ular kechadan ozgina (fursatgina) ko‘z yumar edilar. Va saharlarda ular (qilgan sahv-u xatolari uchun Parvardigordan mag‘firat so‘rar edilar”, “Ularning yuzlariida sajda izidan (qolgan) belgi-alomatlari bordir”.

O‘rta asrga oid manbalarda ham zuhdning ta’rifiga doir ko‘plab matnlarni uchratish mumkin. Masalan, yurtimizdan yetishib chiqqan buxorolik mashhur mutasavvif Abu Bakr Kalaboziy o‘zining “at-Ta’arruf” asarida komillikka yetishishning o‘n yetti bosqichini sanab o‘tadi, shulardan “zuhd”ni ikkinchi o‘rinda, “tavba” maqomidan keyin keltiradi. Mazkur asarning 36-bobida zuhd haqida quyidagi fikrlar bildiriladi: “Zuhd – qo‘lni mol - dunyodan, qalbni esa, (dunyo matohlariga) ergashishdan xoli qilishdir. Shibliydan zuhd haqida so‘ralganda, u shunday javob berdi: “Chivinning qanotidan kichik narsalardan ham zuhd qilmaganga vayl bo‘lsin. Haqiqiy mazmunda zuhd bo‘lmaydi, o‘zingda yo‘q narsaga zuhd qilmasliging zuhd emas, o‘zida bor narsadan zuhd qilsa, u ham zuhd emas, bu faqat nafsning tasallisidir, go‘yoki zuhd qilgandek”.

Abu Bakr Kalaboziyning shogirdi Mustamliy Buxoriyning (vaf. 1043) “Sharh at-Ta’arruf li-mazhab at-tasavvuf” asarining zuhdga bag‘ishlangan bobida: “Muridlar maqomlari ichida birinchi maqom ham zuhddir”, deydi. Shuningdek, maqomlar ichida tavbadan keyin ikkinchi o‘rinda sanab o‘tilgan zuhdga quyidagicha ta’rif beriladi: “Zuhd (o‘zini tiyish) – bandaning bu dunyo va unga tegishli bo‘lgan barcha narsalarini hech qanday ahamiyatga ega emas, deb bilish ma’nosida ulardan voz kechishi. Zuhdning bir nechta darajalari bo‘lib, uning birinchi darajasi- mol-dunyodan voz kechish, ikkinchi darajasi- ko‘ngilni ta’madan xoli qilish, oxirgi darajasi esa, nafsning bu dunyoda foydalanish mumkin bo‘lgan barcha narsadan lazzatlanishini tark etishdan iborat. Ayrim zohidlar zuhd deganda, nafaqat bu dunyo va unga tegishli bo‘lgan barcha narsalar, balki u dunyo va unga tegishli bo‘lgan barcha narsalardan ham voz kechib, faqatgina Xudo bilan birga bo‘lishni tushunishgan”.

Abu Tolib Makkiy (vaf. 996) esa, “Qut al-qulub” asarida to‘qqiz maqomotni ko‘rsatib, bu yerda “zuhd”ni tavba, sabr, rizo, rajo va xavfdan keyingi oltinchi o‘rinda sanab o‘tadi.

Tasavvuf nazariyotchisi Abu Xafs Shahobbiddin Suhravardiy (vaf. 1234) “Avorif al-maorif” kitobida “tasavvuf”, “faqrlik” va “zuhd” tushunchalarini farqlab ko‘rsatadi. Jumladan, kitobning “Tasavvufning mohiyati” bo‘limida shunday deydi: “Tasavvuf – faqr emas, zuhd ham faqr emas, tasavvuf – zuhd emas. Tasavvuf jamlovchi ism bo‘lib, faqr va zuhd so‘zlarini hamda boshqa sifat va qo‘shimchalarni o‘z ichiga oladiki, bularsiz kishi sufiy bo‘la olmaydi, garchi zohid va faqir bo‘lsin..... Faqir va zohid sulukda o‘z kuch va irodalari bilan yuradilar, ilmlari yetganicha g‘ayrat qiladilar. Vaholanki, sufiy - o‘z nafsining tergovchisi, mustaqil ilmli, u o‘z bilganlariga tayanib qolmaydi, Robbinsining murodi uchun qoim turadi, o‘z murodi uchun emas”.

Shayx Najmiddin Kubroning (vaf. 1221) “Usuli ashara” asarida Allohgeltuvchi yo‘lning ikkinchisi “zuhd” deb ko‘rsatiladi: “Zuhd -xoh oz, xoh ko‘p bo‘lsin dunyo moli, ko‘ngilga manzur narsalari-yu maqomlaridan o‘lik kabi yiroqlashmoqdir. Zuhd qo‘lda mavjud va mavjudligi mahzur sanalmagan mol-ashyodan kechmoqdir”.

Shamsuddin Muhammad Javziy Dimashqiy (vaf. 1350)ning “al-Favoid” asarida zuhd quyidagi toifalarga ajratiladi: 1-haromdan zuhd qilish-farzi ayn; 2-shubhali narsalardan zuhd qilish (bunda shubhaning martabalari inobatga olinadi, shubha kuchli bo‘lsa, vojib zuhd, agar kuchsiz bo‘lsa, mustahab zuhddir); 3-bekorchi gaplardan va nazarlardan tiyilish, ya’ni odamlar va nafsga qarshi zuhd qilish. Chunki nafs insonning Allohgabog‘lanishiga to‘sinqilik qiladi; 4-Allohdan boshqa barcha narsalardan zuhd qilish, ya’ni Allohdan chalg‘itadigan barcha narsalardan tiyilish. Eng afzal zuhd uni yashirishdir, eng qiyin zuhd - farovonlikdan (to‘kin-sochinlikdan) zuhd qilishdir.

Yuqoridagi kabi zuhdga ta’rif va tavsif berilgan kitoblar bilan bir qatorda, islom olamida zuhdga oid yo‘riqnomalari shaklidagi kitoblar ham yaratilgan. Shular sirasida Horis Muhibbiyning (vaf. 857) “al-Masoil fi-z-zuhd va g‘ayrihi (Zohidlik va boshqalar haqidagi masalalar)” asarini kiritish mumkin.

Zuhd haqidagi qarashlar tizimlashib borishi barobarida, mavzuga oid adabiyotlar ham ta’lif etila bordi. Jumladan, islom dunyosida yaratilgan ilk hadis to‘plamlarida ham zuhd mavzusiga alohida e’tibor berilgan. O‘rta asrlarda tasavvuf ulamolari tomonidan yuzga yaqin asar ta’lif etilgani qayd etiladi, jumladan:

1. “Az-Zuhd”: Zaud ibn Qudoma Kufiy (vaf.160/782);
2. “Az-Zuhd va-r-raqoiq”: Abdulloh ibn Muborak Hanzaliy Marvaziy (vaf. 181/803);
3. Kitob az-Zuhd: Imom Ma’ofiy ibn Imron Mavsilii (vaf. 185/807);
4. “Ar-Raqoiq”: Fuzayl ibn Iyoz (vaf.187/809);
- 5.“Kitob az-Zuhd”: Imom Muhammad ibn Fuzayl ibn G’azvon Kufiy (vaf.195);
6. “Kitob az-Zuhd”: Vakiy’ ibn Jarroh (vaf.197/819);
7. “Az-Zuhd”: Abu Usmon Said ibn Mansur Marvaziy (vaf. 227/849);
8. “Kitob az-Zuhd”: Asad ibn Muso (vaf. 212/854);
9. “Az-Zuhd”: Imom Abu Abdulloh Ahmad Naysaburiy (vaf. 234/856);
10. “Az-Zuhd”: Imom Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbal (vaf. 241/863);
11. “Az-Zuhd”: Hannod ibn Sarriy (vaf. 243/865);
12. “Kitob az-Zuhd”: Hofiz Ibrohim ibn Junayd (vaf. 260/882);
13. “Az-Zuhd”: Imom Abu Dovud (vaf. 275/897);
14. “Al-Vara”’: Muhammad ibn Nasr Marvaziy (vaf. 294/916);
15. “Az-Zuhd”: Muhammad ibn Ahmad Assol Isfahoniy (vaf. 249/871) va h.k.

Shular orasida eng mashhurlari – Abdulloh ibn Muborak Marvaziy, Vakiy’ ibn Jarroh va Ahmad ibn Hanbalning zuhdga oid to‘plamlari hisoblanadi.

Abdulloh ibn Muborakning “Kitob az-zuhd va-r-raqoiq” asari 16 bo‘limdan iborat bo‘lib, har bir bo‘lim bir necha boblardan tashkil topgan. Kitobda jami 1627 ta hadis jamlangan. Birinchi bo‘lim boblari Allohga itoat, dunyodan yuz o‘girish uchun ilm talab qilish va boshqa masalalarga bag‘ishlangan. Shuningdek, Abdulloh ibn Muborak zohidlik haqida shunday deydi: “Eng afzal zuhd – zohidlikni yashirishdir”, yana uning aytishicha: “Zohidlik butunlay tarkidunyo qilish, halol kasbni tark qilish va yaxshi ishlarga nafaqa sarflashdan yuz o‘girish emas. Balki zohidlik – haromni, shubhali narsalarni tark qilish, har bir halol va mubohning ortiqchasidan voz kechishdir”.

Vakiy’ ibn Jarrohning “Sahihi kitob az-zuhd” asari ham zuhd mavzusidagi hadislarni jamlagan muhim manba hisoblanadi. Mazkur asar 70 bobdan iborat bo‘lib, zuhd mavzusida jami 332 ta hadis keltirilgan.

Zuhd mavzusi mazhab asoschilarining qarashlarida ham yetakchi o‘rinda turgan. Hanbaliylik mazhabi asoschisi Ahmad ibn Hanbal (vaf. 241/855 y.) ning “Kitob az-zuhd” asarining avvalgi juzida 12 payg‘ambar (Muhammad (a.s.), Odam (a.s.), Nuh (a.s.), Ibrohim (a.s.), Yusuf (a.s.), Ayyub (a.s.), Yunus (a.s.), Muso (a.s.), Dovud (a.s.), Sulaymon (a.s.), Luqmon (a.s.) Iyso (a.s.)) zuhdlari haqida xabar beruvchi hadislар keltiradi, asarning keyingi juzlari roshid halifalar (Abu Bakr Siddiq (r.a.), Umar (r.a.), Usmon (r.a.), Ali (r.a.)), mashhur sahobalar Abu Dardo (r.a.), Talha ibn Abdulloh (r.a.), Abu Zarr (r.a.), Salmon Forsiy (r.a.), Abu Hurayra (r.a.), Oisha (r.a.), Huzayfa bin Yaman (r.a.), Muoz ibn Jabal (r.a.), Abdulloh ibn Umar (r.a.), Abdulloh ibn Abbas(r.a.) va b.q.), shuningdek, mashhur tobeinlar (Uvays Qaraniy, Molik ibn Anas va b.q.) zuhdlari haqida ma’lumot beradi.

Mashhur “sahih” to‘plamlarida ham zuhd mavzusi alohida boblarda yoritilgan. Xususan, Imom Muslim (vaf. 261/875) “Sahihi”ning “Zuhd va riqoq kitobi”da zuhdga oid jami 55 ta hadis 19 ta bobda sharhlangan.

MUHOKAMA

X asrda yashab o‘tgan musulmon faylasuflaridan bo‘lgan Abulhasan Omiriy (vaf. 381/992) o‘zining “Al-I’lam bi manoqib al-isлом” asarida oltita - isлом, yahudiylilik, nasroniylik, majusiylik (zardushtiylik), sobi’iylar hamda butlarga sig‘inuvchilar (ibadatul asnom) dinlarida ibodat, aqida hamda zuhdga oid amaliyotlarni (xususan, ro‘za) qiyosiy jihatdan o‘rgangan.

Ba‘zi tadqiqotchilar xulosalarida xristianlikdagi monaxlik institutining islomdagи zohid va darveshlar faoliyatining muqobili sifatida keltirilishi, bunda tashqi ko‘rinishdan umumiyoт o‘xshashlik kuzatilishi tadqiq qilingan. Jumladan, monaxlik hamda darveshlar jamoasiga qabul qilinishdagi umumiylig ko‘rib chiqilgan. Rus tadqiqotchisi P. Pozdnev o‘zining “Musulmon dunyosidagi darveshlar” (Дервиши в мусульманском мире) kitobida aksariyat musulmon olimlari, shuningdek, g‘arb olimlaridan D. Osson, Fon Gammeri, I. Dellinger kabilar o‘z qarashlaridan kelib chiqib, darveshlarni zohid (asket)lar deb ko‘rsatgani, shu bilan birga, ularni xristian monaxligiga parallel sifatida tavsiflaganlarini keltiradi.

Ko‘plab sharqshunos, islomshunos olimlar,

jumladan, A. Shimmel, I. Goldsiyer, I. Petrushevskiy zuhdni tasavvufning negizi sifatida qayd etganlar.

Yuqoridagi fikr bilan bir qatorda, zuhd tasavvufdan alohida holda rivojlanib borgan, degan qarashlar ham ayrim olimlar orasida uchraydi. Bunga dalil qilib zohidlikni tasavvufdan alohida tarzda, mustaqil davom etganligi bilan izohlaydilar: “Agar tasavvuf zohidlikning keyingi bosqichi bo‘lganida edi, zohidlik tasavvuf taraqqiy topgan davrlarda yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lar edi. Lekin manbalarda mamluklar davrida Misr faqih va ulamolarining aksariyati sufiy emas, balki zohid bo‘lganliklari qayd etiladi. Zuhdning tasavvuf bilan hamohangligi sabab, avvalgi sufiyalar o‘z ta’limotlarining islom diniga muvofiq kelishini tasdiqlash uchun nufuzli tobeiylar Hasan Basriy, Sufyon Savriy va Said ibn Jubayrn ham yetakchi sufiyalar sirasida zikr etganlar”.

NATIJA

Zohid va sufiyning farqi xususida hatto Abdurahmon Jomiy (1414-1492) ham “Nafahot al-uns” asarida to‘xtab o‘tgan: “Zohidlar bu dunyodan hazar qilib, oxirat jamoliga imon nuri bilan boqsalarda, jannat xayoli bilan bog‘liq hissiy zavqdan qutulmaydilar, haqiqiy sufiyini esa ikki dunyo tashvishlaridan Yaratganning jamoli va ishq pardasi to‘sib turadi”.

Mashhur musulmon ilohiyotshunos olim, mutasavvif, faylasuf va faqih Imom G‘azzoliyning (vaf. 589/1111) “Arba’in fi usul ad din” asarida “sufiylik amaliyoti faqat ilohiylikni anglash doirasida ma’noga ega” fikri ilgari surilib, unga ko‘ra, sufiylik ham botinan, ham zohiran ilohiy ahloq hisoblanadi, unda inson Alloh bilan yuzlanishi sodir bo‘luvchi vaqtinchalik va boqiy Borliq kesishgan nuqta sifatida ko‘riladi. Bu fikrni G‘azzoliy tomonidan “zuhd”ni ta’riflash uchun “zuhd muhaqqqaq” atamasini qo‘llanilganligi yaqqol tasdiqlaydi. “Muhaqqqaq” (haqiqiy amalga oshirilishi) so‘zi “tahaqqquq” (haqni qaror topishi) atamasidan kelib chiqqan.

G‘azzoliy “zuhd”ning uchta holatini belgilab berib, bu tasnidfa jahannam o‘tidan qo‘rqqanligi uchun zuhd yo‘liga kirganlar eng quyi darajaga kiritilgan; ikkinchi darajaga jannat lazzatlaridan bahra olish uchun zuhd qiluvchilar qo‘yilgan; olyi darajaga esa, Allohdan o‘zga barcha narsalardan kechib, Alloh haqidagi fikrdan chalg‘imaydigan va Allohga o‘zini bag‘ishlagan zohidlar qo‘yilgan. G‘azzoliy bu darajani “zuhd al-orifin”, deb

ta’kidlaydi. Bu – zuhdi muhaqqqaq, undan avvalgilari esa – amal (tarkidunyolikning amali), chunki uni bajargan kishi bu dunyoda nimadandir voz kechishi evaziga u dunyoda bir necha barobar bo‘lib qaytishi ilinjida qilgan”.

Keyingi davr islom olimlari ham o‘z tadqiqotlarida zohidlik hamda sufiylik borasida o‘ziga xos fikrlarni ilgari surganlar. Jumladan, Markaziy Osiyo tasavvufining IX-X asrlardagi eng yorqin namoyandasasi Hakim Termiziy o‘zining “Navodir al-usul” asarida shunday yozadi: “Zamonamizda o‘zini zohid qilib ko‘rsatuvchilar paydo bo‘lgan. Sahobiy va tobeiylardan bo‘lgan salaf solihlar sidq va o‘z dinlarini ehtiyyot qilib, boriga qanoat qilib, jun (suf) va juldur kiyim (haligon) kiyganlar, odamlarga aralashishdan o‘zlarini tiyanlar. Ular bu amallarni Alloh taolodan qo‘rqib, Uning oldiga dunyo qoldiqlari bilan ifloslanib bormaslik uchun qilganlar. Ularning bu ishlari xuddi cho‘kib ketishdan qo‘rqib, dengizga tushishdan qo‘rqan odamga o‘xshaydi. Bu esa, ularning e’tiqodlari zaifligidandir. Ulardan keyin esa, xuddi shu ishlarda sodiq - rostgo‘y bo‘lmagan kishilar ularga ergashib, suf va haligon kiyishga, qotgan non va qoldiqlar yeyishga kirishdilar. Ular bu bilan zuhdlarini namoyon qilmoqchi bo‘ldilar, qalblari esa, dunyo shahvatlari bilan to‘la, ularning dunyolari dinlarini yeb qo‘ygan”. Demak, Hakim Termiziy o‘sha davrda Movarounnahr va Xuroson mintaqasiga kirib kelayotgan Iraq tasavvuf maktabi ta’limotlari ta’siriga uchragan zohidlarni tanqid qilgan.

XULOSA

Xristianlik va islomdagagi asketik qarashlarga har ikki dinning muqaddas manbalari asos bo‘lgan. Garchi asketizm (zuhd) so‘zi har ikki manbada ham faqatgina bir marotaba kelgan bo‘lsa-da, mazmunan asketik amaliyotlarga ko‘plab misollar mavjud. Bundan tashqari xristianlikka Havoriylar maktublari, faoliyatlari ham asketik qarashlar va amaliyotlarning shakllanishi hamda rivojiga turtki bo‘lgan. Xristianlik asketizmi bo‘yicha manbalar IV-V asrlarda din yetakchilari tomonidan yozila boshlagani, keyingi davrlarda esa mazkur mavzu yuzasidan nazariy va amalii tadqiqotlar olib borilganini aytish mumkin.

Xuddi shuningdek, islomda zuhdning rivojiga Qur’oni karim oyatlari, payg‘ambar (a.s.) hadislari asos bo‘lishi bilan birga sahoba hamda tobeiylar hayot tarzları, dunyoga nisbatan munosabatlari o‘rnak bo‘lgan. Zuhdga oid tizimli qarashlar shakllanishi

barobarida mazkur mavzuda maxsus adabiyotlar yaratilgan. Klassik davr adabiyotlarining deyarli barchasida zuhdga tegishli fasl (boblar) kiritilgan, xususan, Kalaboziy, Qushayriy, Abu Tolib Makkiy, Imom G'azzoliy kabi olimlarning tasavvufga doir klassik asarlarida bu mavzuga alohida boblar ajratilgan. Islomning ilk davrlarida zuhd mavzusiga oid hadislarni alohida jamlash urf bo'lgan hamda zuhd amaliyotiga doir mustaqil yo'riqnomalar, zuhd tavsifiga oid kitoblar ham ta'lif etilgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulmun'im al-Hifniy. (1986). Al-Munjid fi lug'ati va a'lam. Bayrut: Darul mashriq.
 2. Louis Maalouf. (2006). Al-mavsua as-sufiya. – Qohira: Maktaba madbuli.
 3. Abu Bakr Kalaboziy. (1994). Kitob at-ta'arruf li mazhabi ahl at-tasavvuf. Qohira.
 4. Джеймс У. Многообразие религиозного опыта. Москва: Наука, 1993. 230 с.
 5. Йилмаз К. (2007). Тасаввух и тарикаты. Москва: САД.
 6. Кныш А.Д. (1991). Ат-Тасаввух. // Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука.
 7. Корпачев П.А. (2016). Аскетизм в христианстве I века. Вестник Челябинского государственного университета.
 8. Ibn Manzur. (1997). Lisonul arab. Bayrut: Darus sodir.
 9. Насыров И.Р. (2009). Основания исламского мистицизма. Генезис и эволюция. Т. 1. Москва.
 10. Прозоров С.М. (2016). Ислам как идеологическая система. Т. II. Институт восточных рукописей РАН. Москва: Наука.
 11. Петросян А.Р. (1991). Ислам. Энциклопедический словарь. Москва: Наука.
 12. Розанов В.В. (1990). Смысл аскетизма. // Розанов В.В. Религия и культура. Т. 1. Москва: Правда.
 13. Raximov K. (2020). Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). Toshkent: Akademnashr.
 14. Свенцицкая И.С. (1988). Раннее христианство страницы истории. Москва: Политиздат.
 15. Turar U. (1999). Tasavvuf tarixi. Toshkent: Istiqlol.
 16. Тримингэм Дж.С. (1989). Суфийские ордены в исламе / Перевод с англ. А.А.Ставиской, под ред. и предисл. О.Ф. Акимушкина. – М.: Наука, 1989.
 17. Ibrohim Usmonov. (2018). Muslim altruism ideas in the scientists' writings of Maverannahr. The Light of Islam: Vol. 2. Iss. 1, Article 4. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2018/iss1/4>
 18. Шиммель А. (1999). Мир исламского мистицизма. Москва.
 19. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). Zuhd va hayo. Toshkent: "Hilol-nashr".
 20. Хоружий С.С. (1998). К феноменологии аскезы. М.:
- Изд. Гуманитарной литературы.
21. Xasanov A. (1992). Makka va madina tarixi. Toshkent: Mehnat.
 22. Ibrohim Haqqul. (2017). Tasavvuf: tarix, mohiyat va tadqiq talablari // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent: 2017.

REFERENCES

23. Abdulmun'im al-Hifni. (1986). Al-Munjid fi lughati va a'lam. Beirut: Darul mashriq.
24. Louis Maalouf. (2006). Al-mavsua as-sufiya. Cairo: Maktaba madbuli.
25. Abu Bakr Kalabazi. (1994). Kitab at-ta'arruf li madhabli ahl at-tasawwuf. Cairo.
26. Djeyms U. Mnogoobraziye religioznogo opyta. Moscow: Nauka, 1993. 230 s.
27. Yilmaz K. (2007). Tasavvuf i tarikaty. Moskva: SAD.
28. Knish A.D. (1991). At-Tasavvuf. // Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. Moscow: Nauka.
29. Korpachev P.A. (2016). Asketizm v xristianstve I veka. Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta.
30. Ibn Manzur. (1997). Lisonul arab. Bayrut: Darus sodir.
31. Nasirov I.R. (2009). Osnovaniya islamskogo mistisizma. Genezis i evolyusiya. Vol. 1. Moscow.
32. Prozorov S.M. (2016). Islam kak ideologicheskaya sistema. Vol. II. Institut vostochnyx rukopisey RAN. Moscow: Nauka.
33. Petrosyan A.R. (1991). Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. Moskva kva: Nauka.
34. Rozanov V.V. (1990). Smysl asketizma. // Rozanov V.V. Religiya i kultura. Vol. 1. Moscow: Pravda.
35. Rahimov K. (2020). Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta'limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). Tashkent: Akademnashr.
36. Svensiskaya I.S. (1988). Ranneye khristianstvo stranisy istorii. Moscow: Politizdat.
37. Turar U. (1999). Tasavvuf tarikhi. Tashkent: Istiqlol.
38. Trimingem Dj.S. (1989). Sufiyskiye ordeny v islam / Perevod s angl. A.A.Staviskoy, pod red. i predisl. O.F. Akimushkina. – Moscow: Nauka, 1989.
39. Ibrohim Usmonov. (2018). Muslim altruism ideas in the scientists' writings of Maverannahr. The Light of Islam: Vol. 2018 : Iss. 1, Article 4. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2018/iss1/4>
40. Shimmel A. (1999). Mir islamskogo mistisizma. Moscow.
41. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2019). Zuhd va hayo. Tashkent: "Hilol-nashr".
42. Khorujiy S.S. (1998). K fenomenologii askezy. Moscow: Izd. Gumanitarnoy literatury.
43. Xasanov A. (1992). Makka va Madina tarikhi. Tashkent: Mehnat.
44. Ibrohim Haqqul. (2017). Tasavvuf: tarikh, mohiyat va tadqiq talablari // O'zbek tili va adabiyoti. Tashkent: 2017.